

## INTERAKTIV VA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MILLIY TARBIYA ASOSLARI FANINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Tursunov Alisher Yigitaliyevich,**

*Farg'ona davlat universiteti*

*"Pedagogika" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi*

*E-mail: [alisheryigitaliyevich1977@gmail.com](mailto:alisheryigitaliyevich1977@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola interaktiv va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitishni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda milliy tarbiya mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyalashning nazariy va amaliy jihatlari yoritildi. Interaktiv metodlar, raqamli platformalar va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, ta'lim jarayonida raqamli resurslardan samarali foydalanishning pedagogik shartlari va metodik tavsiyalari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari interaktiv va raqamli texnologiyalarni qo'llash milliy tarbiya fanining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** milliy tarbiya, interaktiv ta'lim, raqamli texnologiyalar, pedagogik innovatsiya, multimedia vositalari, kompetensiyaviy yondashuv, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim samaradorligi.

**Аннотация.** Данная статья посвящена вопросам совершенствования преподавания дисциплины «Основы национального воспитания» на основе интерактивных и цифровых образовательных технологий. В исследовании раскрыты теоретические и практические аспекты интеграции содержания национального воспитания с современными педагогическими подходами. Проанализированы возможности использования интерактивных методов, цифровых платформ и мультимедийных средств в повышении учебной активности обучающихся, развитии их самостоятельного мышления, а также формировании осознанного отношения к национальным и общечеловеческим ценностям. Кроме того, разработаны педагогические условия и методические рекомендации по эффективному использованию цифровых ресурсов в образовательном процессе. Результаты исследования показывают, что применение интерактивных и цифровых технологий способствует повышению эффективности преподавания дисциплины национального воспитания.

**Ключевые слова:** национальное воспитание, интерактивное обучение, цифровые технологии, педагогические инновации, мультимедийные средства, компетентностный подход, духовно-нравственное воспитание, эффективность обучения.

**Abstract.** This article is devoted to improving the teaching of the course "Foundations of National Education" through the use of interactive and digital educational technologies. The study examines the theoretical and practical aspects of integrating the content of national education with modern pedagogical approaches. The potential of interactive methods, digital platforms, and multimedia tools in increasing students' learning activity, developing independent thinking, and fostering a conscious attitude toward national and universal values is analyzed. In addition, pedagogical conditions and methodological recommendations for the effective use of digital resources in the educational process were developed. The research results demonstrate that the application of interactive and digital technologies contributes to improving the effectiveness of teaching the course on national education.

**Keywords:** national education, interactive learning, digital technologies, pedagogical innovation, multimedia tools, competency-based approach, moral and ethical education, learning effectiveness.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida yosh avlodni milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda "Milliy tarbiya asoslari" fanining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy

qadriyatlarga hurmat hamda ma'naviy barkamollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq an'anaviy o'qitish usullarining ustunligi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini yetarli darajada ta'minlamasligi hamda mavzularni chuqur anglash imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Raqamli platformalar, multimedia vositalari, onlayn resurslar va interfaol topshiriqlar o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini kuchaytirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarni zamonaviy shaklda o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, "Milliy tarbiya asoslari" fanini interaktiv va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishni takomillashtirish, uning metodik imkoniyatlarini ilmiy asoslash hamda ta'lim jarayoniga samarali joriy etish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** "Milliy tarbiya asoslari" fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish masalasi pedagogika nazariyasi va amaliyotining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Milliy tarbiyaning mazmun-mohiyati shaxsda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash bilan bog'liq holda talqin etiladi. Mahalliy pedagog olimlar N.Muslimov, B.Xodjayev, Sh.Sharipov, O'.Tolipov, R.Ishmuhamedov va boshqalarning tadqiqotlarida yosh avlodni ma'naviy yetuklik, vatanparvarlik va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari hamda milliy tarbiyani tashkil etishning metodik shartlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish doirasida interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda interaktiv metodlar o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda shaxsiy faolligini kuchaytirishda samarali vosita sifatida e'tirof etilgan. Muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, bahs-munozara va guruhli ishlash kabi interfaol yondashuvlar tarbiyaviy mazmundagi fanlarni o'qitishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligi ilmiy manbalarda qayd etilgan.

Ta'lim jarayonini raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha xorijiy tadqiqotlarda (OECD, UNESCO, Council of Europe hisobotlari) raqamli muhit o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish, individual ta'lim trayektoriyasini ta'minlash hamda ta'lim natijalarini yaxshilash imkonini berishi ta'kidlangan. Multimedia vositalari, interaktiv platformalar va elektron ta'lim resurslari vizual va interfaol muhit yaratish orqali ma'naviy-axloqiy mazmundagi tushunchalarni ongli va chuqur o'zlashtirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Mavjud tadqiqotlarda milliy tarbiyaning nazariy asoslari, interaktiv metodlarning pedagogik imkoniyatlari hamda

raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi alohida-alohida yoritilgan. Biroq "Milliy tarbiya asoslari" fanini interaktiv va raqamli texnologiyalarni integratsiyalashgan holda o'qitishning kompleks metodik modeli, shuningdek, uning samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi aniq mezon va indikatorlar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy-metodik tadqiqotlarni chuqurlashtirish hamda milliy tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlar asosida olib borildi. Kompetensiyaviy yondashuv "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitish jarayonida talabalarda ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlashga xizmat qildi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish asosida ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutdi. Tizimli yondashuv esa milliy tarbiya mazmuni, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarni o'zaro bog'liqlikda qo'llash hamda o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini yaxlit holda o'rganish imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlari Farg'ona davlat universitetining pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabalari o'rtasida o'tkazildi. Tadqiqotda jami 52 nafar talaba ishtirok etib, ular 2 ta guruhga ajratildi: tajriba guruhi (26 nafar) va nazorat guruhi (26 nafar). Tadqiqot diagnostik, tajriba va yakuniy nazorat bosqichlarini qamrab oldi. Diagnostik bosqichda talabalarning milliy qadriyatlarga munosabati, ma'naviy-axloqiy bilimlari va ijtimoiy faollik darajasi aniqlanib, boshlang'ich ko'rsatkichlar belgilandi.

Tajriba bosqichida tajriba guruhida "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitishda interaktiv metodlar (bahs-munozara, keys-stadi, loyiha ishlari, aqliy hujum, guruhli faoliyat) hamda raqamli texnologiyalar (multimedia taqdimotlar, videomateriallar, onlayn platformalar, interfaol topshiriqlar) tizimli ravishda joriy etildi. Nazorat guruhida esa o'quv jarayoni an'anaviy metodlar asosida olib borildi. Yakuniy bosqichda har ikki guruh natijalari qiyosiy tahlil qilindi, nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda o'qitishning metodik modelini ishlab chiqish qo'llanildi. Empirik metodlar qatoriga pedagogik kuzatish, so'rovnoma, test topshiriqlari, suhbat, o'quv faoliyati natijalarini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash usullari kiritildi.

Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan qayta ishlanib, kompetentlik darajalari past, o'rta va yuqori mezonlar asosida baholandi. Miqdoriy tahlilda foiz ko'rsatkichlari va o'rtacha qiymatlar hisoblandi. Natijalarning ishonchliligini aniqlash uchun matematik-statistik ishlov berish usullaridan, jumladan, qiyosiy tahlil va Studentning t-mezonidan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv interaktiv va raqamli texnologiyalar asosida "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitish samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

**Natijalar va muhokama.** Tajriba-sinov ishlari Farg‘ona davlat universitetining pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabalari o‘rtasida olib borildi. Tadqiqotda 52 nafar talaba ishtirok etib, ular tajriba (26 nafar) va nazorat (26 nafar) guruhlariga ajratildi. Diagnostik bosqich natijalari har ikki guruhda ham “Milliy tarbiya asoslari” faniga oid bilimlar, milliy qadriyatlarga munosabat va ijtimoiy faollik darajasining asosan o‘rta va past ko‘rsatkichlarda ekanligini aniqladi. Bu esa mazkur yo‘nalishda ta‘lim jarayonini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Tajriba bosqichida tajriba guruhida interaktiv metodlar (bahs-munozara, loyiha ishlari, keys-stadi, guruhli faoliyat) hamda raqamli texnologiyalar (multimedia taqdimotlar, videomateriallar, onlayn platformalar va interfaol topshiriqlar) tizimli ravishda qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa darslar an‘anaviy usullar asosida olib borildi. Jarayon davomida talabalarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi va mavzularni chuqur anglash darajasi muntazam kuzatildi. Yakuniy nazorat natijalari guruhlar kesimida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

#### Talabalarning umummadaniy kompetentligining rivojlanish darajasi

*1-jadval.*

Daraja	Tajriba guruhi (boshlang‘ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (boshlang‘ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Past	34%	15%	35%	30%
O‘rta	48%	50%	47%	49%
Yuqori	18%	35%	18%	21%

Olingan ma‘lumotlar tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 18 foizdan 28 foizgacha oshganini, past darajadagi ko‘rsatkichlar esa sezilarli kamayganini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar nisbatan past darajada bo‘ldi. Matematik-statistik tahlil natijalari (Student t-mezone) tajriba va nazorat guruhlarini o‘rtasidagi farqning ishonchli ekanligini tasdiqladi ( $p < 0,05$ ).

Motivatsion-qadriyatli komponent bo‘yicha talabalarda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik va ijtimoiy mas‘uliyat hissi sezilarli darajada kuchaydi. Kognitiv komponent doirasida milliy tarbiya mazmuni, an‘ana va qadriyatlar haqidagi bilimlar tizimlashdi va chuqurlashdi. Eng katta o‘zgarish faoliyatli komponentda kuzatilib, talabalar jamoaviy ishlash, ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish, o‘z fikrini asoslab bayon etish va raqamli muhitda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini namoyon etdilar.

Shuningdek, interaktiv va raqamli vositalar asosida tashkil etilgan mustaqil faoliyat talabalarning tanqidiy fikrlashi, axborotni tahlil qilish hamda muammoli vaziyatlarga nisbatan tahliliy yondashuvini rivojlantirdi. Umuman olganda, olingan natijalar interaktiv va raqamli ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash “Milliy tarbiya asoslari” fanini o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim pedagogik sharti ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari Farg‘ona davlat universiteti pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabalari o‘rtasida interaktiv va raqamli ta‘lim texnologiyalari asosida “Milliy tarbiya asoslari” fanini o‘qitish talabalarning umummadaniy va ma‘naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov ishlari yakunlariga ko‘ra, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 18 foizdan 35 foizgacha oshdi, past darajadagi ko‘rsatkichlar esa 34 foizdan 15 foizgacha kamaydi. Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar nisbatan past darajada kuzatildi, bu esa qo‘llanilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Komponentlar kesimida tahlil natijalari motivatsion-qadriyatli yo‘nalishda talabalarda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik va ijtimoiy mas‘uliyat hissining kuchayganini ko‘rsatdi. Kognitiv komponent doirasida milliy tarbiya mazmuni, urf-odat va an‘analar haqidagi bilimlar tizimlashib, chuqurlashdi. Eng sezilarli o‘shish faoliyatli komponentda kuzatilib, talabalar jamoaviy faoliyatda ishlash, ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish, o‘z fikrini asoslab bayon etish hamda raqamli vositalardan mustaqil foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan interaktiv va raqamli texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan metodik yondashuv umummadaniy kompetentlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish, ta‘lim jarayonini individuallashtirish va uning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Mazkur natijalar pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish hamda milliy tarbiya mazmunini zamonaviy ta‘lim muhitiga moslashtirish uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.A.Muslimov Kasbiy ta‘lim metodikasi. Toshkent: Fan, –2020.
2. O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod-moliya, –2019.
3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, –2021.
4. Sh.S.Sharipov Ta‘lim jarayonida ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari. Pedagogika, №3, 15–21.
5. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Sano-standart, –2018.
6. И.А.Зимняя Ключевые компетенции как результат образования. Высшее образование сегодня, №5, 34-42.
7. А.В.Кхуторской Компетентностный подход в образовании. Мосcow: Эйдос, –2019.